



MAHKUMLARNING HUQUQIY MAQOMI NAZARIY-HUQUQIY
TAHLIL VA ISLOHOTLAR ISTIQBOLI

Ayapbergenova Gulshaxar

Jamoat Xavfsizligi Universiteti

1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jazoni ijro etish tizimidagi islohotlar kontekstida mahkumlarning huquqiy maqomi tushunchasi, uning tarkibiy elementlari va o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etiladi. Muallif milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga, xususan "Mandela qoidalari"ga muvofiqlashtirish masalalarini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: mahkum, huquqiy maqom, inson qadr-qimmati, Jinoyat-ijroiya kodeksi, resotsializatsiya, huquqiy cheklovlar.

Inson huquqlarini himoya qilish zamonaviy demokratik davlatning eng oliy maqsadi hisoblanadi. Bu borada jamiyatdan ajratilgan, ozodlikdan mahrum etish joylarida jazo o'tayotgan shaxslarning huquqiy maqomini belgilash va ta'minlash alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar "inson — jamiyat — davlat" tamoyili asosida mahkumlarning huquqiy holatini tubdan yaxshilashga qaratilgan. Mahkumlarning huquqiy maqomini o'rganish nafaqat yuridik, balki ijtimoiy ahamiyatga ega, chunki jazoning maqsadi faqatgina jazolash emas, balki shaxsni qayta tarbiyalash va uni jamiyatga sog'lom a'zo sifatida qaytarishdan iboratdir.

Mahkumlar ham, avvalo, shu davlat fuqarosi hisoblanib, barcha insonlargataalluqli bo'lgan huquqlar ularga ham tegishli bo'ladi. Faqat mahkumlarning ba'zi huquq va erkinliklari cheklanib, ularning huquqi tayinlangan jazoning turi vamaqsadi bilan belgilanadi. Mahkumlarning huquqini adolatli tarzda, xalqaro huquq tamoyillari talablari darajasida belgilab qo'yilishi va ta'minlanishi siyosiy va huquqiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu mahkumlarga shu davlat va jamiyatning munosabatini bildiradi. Mahkumlarga tayinlangan jazoning



turi va mazmunidan qat'i nazar ular qonunda belgilangan asosiy huquqlardan mahrum etilmaydi (masalan, yashash huquqi, sog'lig'ini saqlash huquqi, mulkiy huquqlari va h.k.) hamda shu jamiyatning to'la qonli a'zosi va shu davlatning fuqarosi hisoblanadi.

Yuridik adabiyotlarda mahkumlarning huquqiy maqomi deganda, davlat tomonidan belgilangan va qonun bilan mustahkamlangan, jinoiy jazoni ijro etish jarayonida yuzaga keladigan huquqlar, erkinliklar va majburiyatlar tizimi tushuniladi.

Ilmiy nazariyaga ko'ra, mahkumlarning maqomi uchta tarkibiy qismdan iborat:

Umumiy huquqiy maqom: Mahkum O'zbekiston Respublikasi fuqarosi sifatida saqlab qoladigan huquqlari (masalan, yashash huquqi, sog'liqni saqlash huquqi).

Maxsus huquqiy maqom: Jinoyat-ijroiya qonunchiligi bilan belgilangan va faqat mahkumlarga tegishli bo'lgan spesifik huquq va majburiyatlar (masalan, banderol, yo'qlama, uchrashuvlar huquqi, posilkalar olish tartibi).

Yakka tartibdagi maqom: Konkret shaxsga nisbatan sud tayinlagan jazo turi va koloniya turiga qarab belgilanadigan maqom.

Eng muhim yangiliklardan biri — ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning saylov huquqining kengaytirilishi bo'ldi. Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etgan shaxslarning saylovlarda ishtirok etishi ularning siyosiy maqomi tiklanayotganidan dalolat beradi. 2021-yilgi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi ma'lumotlariga ko'ra, jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan 7 mingdan ortiq mahkum ovoz berishda ishtirok etishi ma'lum qilingan edi.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi jazoni ijro etish tizimida «jazolash» konsepsiyasidan «inson huquqlarini ta'minlagan holda qayta tarbiyalash» konsepsiyasiga o'tish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratdi. Xususan, Bosh qomusimizning 26-moddasida mustahkamlangan «Insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizdir. Hech narsa ularni



kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas» degan norma mahkumlarning huquqiy maqomiga nisbatan mutlaqo yangicha yondashuvni talab etadi.

Birinchidan, ushbu normaning jazoni ijro etish muassasalariga tatbiq etilishi mahkumning faqatgina jinoyat subyekti emas, balki davlat himoyasidagi inson ekanligini tasdiqlaydi. Ilgari mahkumlarning huquqlari asosan idoraviy normativ hujjatlar yoki Jinoyat-ijroiya kodeksi darajasida tartibga solingan bo'lsa, endilikda bu huquqlar oliy yuridik kuchga ega bo'lgan Konstitutsiya darajasida kafolatlanmoqda. Bu esa har qanday idoraviy yo'riqnoma yoki buyruq Konstitutsiyaviy tamoyillarga zid bo'la olmasligini anglatadi.

Ikkinchidan, Konstitutsiyaning 26-moddasi 2-qismida belgilangan «Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomala yoxud jazoga mustahiq bo'lishi mumkin emas» degan qoida mahkumlarning huquqiy maqomidagi «daxlsiz yadro»ni tashkil etadi. Ilmiy nuqtai nazardan bu — mahkumning jismoniy va ruhiy daxlsizligini ta'minlovchi absolut huquqdir. Ushbu norma asosida koloniyalarda mahkumlarning saqlanish sharoitlari, tibbiy xizmat ko'rsatish sifati va ma'muriyatning mahkumlar bilan muloqot uslubi tubdan qayta ko'rib chiqilmoqda.

Uchinchidan, mahkumlar huquqiy maqomining kengayishi Konstitutsiyaning 28-moddasida ham o'z aksini topgan. Unga ko'ra, ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o'zlariga nisbatan insoniy munosabatda bo'linishi hamda inson saxsiga xos bo'lgan qadr-qimmat hurmat qilinishi huquqiga egadirlar. Bu norma xalqaro huquqdagi «gumanlik tamoyili»ni ifodalab, jazoni o'tash jarayoni insonni sindirishga emas, balki uning qadr-qimmatini saqlagan holda ijtimoiy hayotga qaytarishga yo'naltirilgan bo'lishi shartligini yuridik jihatdan mustahkamlaydi.

Jinoyat-ijroiya kodeksi mahkumlarning huquqiy maqomini amalda ta'minlovchi va hayotga tatbiq etuvchi asosiy mexanizm hisoblanadi. Bugungi kunda ushbu qonun hujjati mahkumga nafaqat jazo o'tayotgan shaxs, balki muayyan ijtimoiy va huquqiy ehtiyojlarga ega bo'lgan inson sifatida yondashadi. Mahkumlarning huquqiy maqomini isloh qilishda shaxsiy xavfsizlikni ta'minlash



masalasi fundamental ahamiyat kasb etib, bunda har bir shaxs o'z hayoti yoki sog'lig'iga tahdid tug'ilgan taqdirda ma'muriyatdan zudlik bilan himoya talab qilish imkoniyatiga ega ekani qonunan mustahkamlanganini. Ya'ni, mahkumning arizasini (xabarini) qabul qilgan xodim zudlik bilan uni jazoni ijro etish muassasasining yoki organining boshlig'iga taqdim etadi.

Mahkumning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash to'g'risidagi arizasi (xabari) mahkumlarning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash to'g'risidagi arizalarini (xabarlarini) qayd etish kitobida jazoni ijro etish muassasasining yoki organining mas'ul shaxsi tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi.

Jazoni ijro etish muassasasi yoki organi boshlig'i shaxsiy xavfsizlikni ta'minlash to'g'risidagi arizani (xabarni) olgandan so'ng mahkumni xavfsiz joyga vaqtinchalik joylashtirishi shart.

Shu bilan birga, zamonaviy jinoyat-ijroiya siyosati mahkumning jamiyatdan butunlay uzilib qolishiga yo'l qo'ymaslik tamoyiliga asoslanadi. Bu jarayonda loo pijtimoiy rishtalarni saqlab qolish va oilaviy aloqalarni mustahkamlash mahkumning ruhiy holatini barqarorlashtiruvchi asosiy omil sifatida ko'rilmogda. Masofaviy video-uchrashuvlarning joriy etilishi va xat-xabar almashish tartibining soddalashtirilishi mahkumning ijtimoiy rehabilitatsiyasi uchun zarur sharoit yaratmogda. Zotan, jazoni ijro etishdan maqsad insonni yakkalab qo'yish emas, balki uning ijtimoiy foydali aloqalarini tiklashdan iboratdir.

Inson qadr-qimmatini e'zozlash tamoyili mahkumlarning mehnat qilish va ta'lim olish huquqlarida ham yaqqol namoyon bo'lmogda. Bugungi kunda mahkumlarning mehnatiga haq to'lanishi va ularning kasb-hunar o'rganishi uchun yaratilayotgan imkoniyatlar shaxsning o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Mahkumning muayyan kasbga ega bo'lishi yoki ozodlikdan mahrum etish joylarida turib ta'lim olishi uning kelajakda jinoyat yo'liga qaytmasligi uchun eng ishonchli huquqiy va ijtimoiy kafolatdir. Shu tariqa, Jinoyat-ijroiya kodeksi mahkumning huquqiy maqomini faqat cheklovlar bilan emas, balki uning shaxsini rivojlantirishga qaratilgan keng imkoniyatlar bilan boyitmogda.



Mahkumlarning huquqiy maqomi bo'yicha xalqaro standartlarga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekiston BMTning "Mahkumlar bilan muomala qilishning minimal standart qoidalari"ni (Mandela qoidalari) o'z qonunchiligiga faol singdirmoqda. Bu qoidalarning asosiy talabi — mahkumlarga nisbatan munosabat ularni insoniylikdan mahrum qilmasligi kerak. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jazoni ijro etishda inson huquqlariga rioya qilinishi qayta jinoyat sodir etish (retsdiv) darajasini 20–30 foizga kamaytiradi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining mahbuslar bilan muomala qilish bo'yicha minimal standartlarining 1-qoidasida barcha mahbuslarga ularga xos bo'lgan fazilatlarga va inson sifatidagi qadr-qimmatiga qarab hurmat bilan muomalada bo'lish zarur. Hech bir mahbus qiynoqqa solinishi va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni tahqirleydigan muomala yoki jazo turlariga duchor qilinmasligi kerak. Barcha mahbuslar bunday munosabatdan himoyalangan bo'lishi kerak va hech bir holat ularni oqlay olmaydi. Mahbuslar, xodimlar, xizmat ko'rsatuvchi shaxslar va tashrif buyuruvchilarning himoyasi va xavfsizligi doim ta'minlangan bo'lishi kerak.

Yakuniy xulosa sifatida ta'kidlash joizki, mahkumlarning huquqiy maqomini mustahkamlash jinoyat uchun jazo muqarrarligini inkor etmaydi, aksincha, jazoning tarbiyaviy va gumanistik mohiyatini ochib beradi. Zotan, jamiyatning demokratik darajasi va huquqiy madaniyati nafaqat erkin fuqarolarga, balki panjara ortida o'z jazosini o'tayotgan shaxslarga bo'lgan munosabat bilan ham belgilanadi. Mahkumning huquqiy himoyasi — bu jamiyatning xavfsizligi va insoniylik tamoyillarining g'alabasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2023 yil.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi.

Mahkumlar bilan muomala qilishning minimal standart qoidalari (Mandela qoidalari). BMT, 2015 yil.

Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. – Toshkent, 2021.